

# "O'ZBEKISTONDA EKOLOGIK TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA XALQARO MODELLARNI QO'LLASH YO'LLARI"

## ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O`zbekistonda ekologik turizmni rivojlanitirish istiqbollari va ekoturizmni rivojlanirishdan ko`zlangan maqsad haqida tushuncha beradi.

**Kalit so`zlar:** ekoturizm, innovative, ekotizim, ekoturistik resurs

**"Ways to apply international models in the development of ecological tourism in Uzbekistan"**

## ABSTRACT

This article provides an overview of the prospects for the development of ecotourism in Uzbekistan and the purpose of the development of ecotourism.

**Keywords:** ecotourism, innovative, ecosystem, ecotourism resource

Bugungi kunda ilmiy va ommabop adabiyotlar, shuningdek, ommaviy axborot vositalarida ekoturizmning o`rni va ahamiyatini ochib berishga qaratilgan ko`plab qarashlar olg`a surilmoqda. Shu o`rinda, “O`zbekiston Respublikasida ekoturizmni rivojlanirishning ahamiyati nimalardan iborat?” degan savol tug`iladi. Buning bir necha asoslari bor:

Birinchidan, xalqaro maqomdagi tashkilot va muassasalarning ma'lumotiga ko`ra, ko`pgina turizm turlari yiliga o`rtacha 5 foizga ortib borayotgan bo`lsa, ekoturizm yiliga o`rtacha 20-30 foizga ko`payib bormoqda. Ko`pgina mutaxassis va

*Baxtiyorova Durdona Ixtiyor qizi*

*Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti*

*Turizm 1-kurs magistranti*

tadqiqotchilarning ilmiy tajriba va xulosalari shuni ko'rsatmoqdaki, ekoturizm turizmning yangi va yosh yo'nalishi bo'lishiga qaramasdan, ommalashuvi boshqa turistik yo'nalishlarga nisbatan 2-3 barobar jadal kechmoqda;

Ikkinchidan, O'zbekistonda turizmning tarixiy turizm, diniy turizm, madaniy turizm kabi turlari bo'yicha muayyan yutuq va tajribalar bazasi shakllandı;

Uchinchidan, ayni paytda O'zbekistonda 800ga yaqin turizm faoliyatini ko'rsatuvchi turoperatorlik firmalari, 600ga yaqin mehmonxonalar, 30dan ortiq muhofazaga olingan hudud (qo'riqxona, milliy bog', nodir tabiat yodgorliklari va h.k.)lar, 60 ta o'rmon xo'jaliklari, faoliyat ko'rsatmoqda. Shuningdek, O'zbekistonda 400 dan ortiq tabiatning noyob yodgorliklari mayjud.

Ekoturizmni rivojlantirishdan ko'zlangan maqsad quyidagilardan iborat:

- jahon turistik xizmat bozorida O'zbekistonning ekoturistik salohiyati, tabiiy potensiali va resurslarini namoyish qilish;
- hududlarning, ayniqsa tabiatning, geotizimlarning ekoturistik resurslari va imkoniyatlarinidan yanada samarali foydalanishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borishni rag'batlantirish;
- turizmni rivojlantirishda ekoturizmning ahamiyati va ulushini oshirish;
- O'zbekistonda joriy etilgan turistik faoliyatda ekoturistik xizmatlar sifatini tubdan takomillashtirish va ekoturistik xizmatlar hajmini jadal oshirish;
- istiqbolda ekoturizmni rivojlantirishga qaratilgan ilmiy, innovatsion va metodik ishlanmalarni yaratish;

O'zbekistonning turizm sohasidagi ijobiy qiyofasini shakllantirishda ekoturizm rolini oshirish va h.k. O'zbekiston ekoturistik resurs va imkoniyatlarga juda boy. Turopertatorlik firmalari tomonidan "Toshkent-Chorvoq-Toshkent", "ToshkentBildirsoy-Chimyon-Toshkent", "Toshkent-Zomin-Toshkent", "Toshkent-

Aydarko'l Toshkent" kabi marshrutlarda o'tkazilgan ekoturlar, cho'l hududlardagi tuyadagi sayr, nafaqat O'zbekiston, balki butun dunyo turistlarining katta e'tibor va e'tiroflariga sazovor bo'lmoqda.

Tahlillarga ko'ra, ekoturizm xizmatlarini ko'rsatayotgan turoperatorlik firmalari asosan, Chimyon-Chorvoq rekreatsiya zonasi doirasida faoliyat ko'rsatmoqda xolos. Biroq, O'zbekistonning Hisor, Bobotog', Ko'hitangtob' (Surxondaryo), Chaqchar (Qashqadaryo), Nurota (Navoiy-Jizzax), Zarafshon (Samarqand), Turkiston (Jizzax), Oloy (Farg'ona), Qurama, Chotqol (Namangan) tog'lari, Qizilqum cho'lidagi qoldiq tog'lar, Qizilqum cho'li, Orol dengizining qurigan tubi va qodiq sho'r ko'llar, Ustyurt platosi, Borsa kelmas sho'rxogi, Mingbuloq botig'i, Aydarko'l, Dengizko'l, Amudaryo va Sirdaryo sohilidagi to'qaylar, Muruntov kareri va tabiatning noyob yodgorliklari bo'ylab majmuali va mavzuli ekoturlar tashkil etish to'laqonli yo'lga qo'yilmagan. O'zbekistonda o'ziga xos joziba va takrorlanmas manzaralarga boy bo'lgan speleoturizm (g'or turizmi) katta imkoniyatlarga ega. Ayni paytda O'zbekistonda 500dan ortiq g'orlar bo'lib, ma'lumotlarga ko'ra, yetarli turistik infratuzilmaga ega bo'limganligi sababli ularning birortasiga ham ekoturlar tashkil etilmayapti. O'zbekiston cho'llari va tekislik hudlarida barxan, dyuna, to'qay, sho'rxok, taqir, quduqlarni, shuningdek mahalliy cho'ponlar yashash tarzini namoyon qiluvchi o'tovlarni tomosha qilishga qaratilgan tuya sayrini tashkil etish katta imkoniyatlarga ega. Katta Chimyon, Zomin, Chotqol, Ko'ksuv, Piskom, Turkiston, Hisor, Zarafshon, Oloy, Qurama, Nurota tog'larida piyoda, trekking turlarini hamda alpinizmni tashkil etishga tabiiy geografik shart-sharoit mavjud. Shuningdek, tog'lardan oqib tushuvchi ko'plab serostoni va sharqiroq daryo va soyalar (Ugam, Chotqol, Piskom, Ko'ksuv, To'polondaryo, Shoximardon, Sangzor, Zarafshon va h.k.)larda rafting turizmini rivojlantirish imkoniyatlari katta.

Ilmiy tadqiqot muassasalari va mutaxassislarining ma'lumotlariga ko'ra, bugungi kunda ekoturizmning rivojlanish yo'nalishlari va istiqbollari tabiat qonuniyatları va geotizimlar barqarorligi bilan bog'liq holda shakllanmoqda.

So‘ngi yillarda O‘zbekistonda ekoturizmning ilmiy va metodologik asoslarini olib berishga qaratilgan bir qator ilmiy izlanishlar olib borildi, nomzodlik va magistrlik dissertatsiyalari himoya qilindi, ilmiy va o‘quv adabiyotlar nashr qilindi. An'anaviy ustoz-shogird tizimida ekoturizm va o‘lkashunoslikning nazariy jihatlari o‘rganildi. Ammo, bu boradagi tahlillar ekoturizm yo‘nalishida tabiatni, geotizimlarni yaxshi biladigan, tabiatda va tabiatning ekstremal sharoitlarida guruhni boshqara oladigan, zurur bo‘lganda birinchi tibbiy yordamni ko‘rsatish malakasiga ega bo‘lgan bakalavr kadrlar tayyorlash dolzarbligini ko‘rsatmoqda. Sababi, tarixiy turizm, diniy turizm, tibbiyat turizmi, madaniy turizm kabi turizm turlari asosan shahar joylarda, turistik infrastruktura va servis obektlari yetarli joylarda o‘tkazilsa, ekoturlar asosan tabiat qo‘ynida va geotizimlarda olib boriladi, aksariyat ekoturlar ekstremalligi bilan xarakterlanadi.

Eng muhimi shundaki, ekologik turizmni tashkil qilishda mahalliy aborigen aholining ijtimoiyiqtisodiy manfaatlari hisobga olinadi va ekoturistik xizmatlarni amalga oshirish to‘liq ularga topshiriladi. Ikkinchidan, mamlakatdagi shtatlarning ma’muriyatining taklif va tavsiyalarini ham to‘liq hisobga oladi. Mamlakatdagi tabiatshunos, ekolog va biolog olimlar xaltali xayvonlar yurti bo‘lgan Avstraliyaga moliyaviy jihatdan imkoniyatlarga ega bo‘lgan turistlarning kelishini juda yaxshi bilishadi. Shuning uchun ham ular ekoturistik mahsulotlarni turli-tuman mavzularda tayyorlashadi. Hozirda xalqaro turizmda Avstraliyaning ekoturistik marshrutlari juda ommaviylashgan va katta ekoturistik oqimlarni xosil qilgan xalqaro ekoturistik marshrutlari muvaffaqiyat bilan ishlamoqda. Avstraliya modelining muvaffaqiyat bilan ishlayotganligining eng muhim omillaridan biri shundaki, barcha hududlarda tashkil qilinayotgan ekoturistik xizmatlarga faqat o‘scha hududning mahalliy aholiga xizmatlar ko‘rsatadi. Bu usulda ishslash mahalliy aholining ish bilan ta’minlanishini xal qiladi va mahalliy qishloqlarning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini o‘z vaqtida xal qiladi. Bavariya o‘rmonlari milliy parkini ko‘pincha ekologik turizmni rivojlantirishning xalqaro Yevropa-2 modeli deb ham nomlashadi. Bu milliy parkning tashkil qilinishi tizimi ham ekologik turizmni rivojlantirishda butunlay yangicha

usullarni qo'llashdan boshlandi. Ekologik turizmni tashkil qilishda va milliy parklar, alohida muhofazadagi hududlardan ekologik turizmda foydalanishda asosan davlat tashabbuskor bo'lgan bo'lsa Bavariya o'rmonlari milliy parkini mahalliy xukumat tashkil qildi va asosiy shior tabiat va uning resurslarini muhofaza qilishda davlatga yordam berish tizimini ishlab chiqdi.

Ekologik turizmni rivojlantirishda xalqaro ekologik modellardagi yana bir muhim tuzilmalarning mohiyati va mazmuni shundan iboratki, bu modellarda ishlashda birinchi navbatda tabiatni va uning resurslarini muhofaza qilish oldinga qo'yilgan. Ikkinchidan, mahalliy aholining ijtimoiy- iktisodiy manfaatdorligi ta'minlangan. Uchinchidan, davlat va mahalliy boshqaruvarlar ekoturizmni rivojlantirish dasturlarini qabul qilishda insonning dam olishini ta'minlovchi sharoitlarni qonunlar asosida mustahkamlagan. To'rtinchidan, ekoturizmni rivojlantirishda imtiyozli davlat yordami tizimlarini ishlab chiqqan. Besinchidan, xalqaro ekoturistik faoliyatlarga ham milliy parklarning tabiat muhofazasidagi faoliyatlariga ham davlatning ekologik nazorati davlat qonunlari asosida tashkil qilingan.

Xulosa qib aytganda O'zbekistonda rekreatsion zonalar tashkil etish taomillari soddallashtiriladi, ekoturizm yanada rivojlantiriladi. Parlament quyi palatasining navbatdagi yalpi majlisida deputatlar tomonidan ko'rib chiqilgan "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi qonun loyihasi shunga ishora qilmoqda.

Mazkur hujjatda O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksi, "O'rmon to'g'risida"gi va "Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida"gi qonunlariga o'zgartish hamda qo'shimchalar kiritish nazarda tutilyapti.Qonun loyihasi o'rmon fondi yerlaridan samarali va oqilona foydalanish, O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasi tomonidan yuridik va jismoniy shaxslarga investision shartnomalar yoki davlat-xususiy sheriklik asosida yer uchastkalarini ijaraga berish masalalarini huquqiy tartibga solish uchun zarur.Yalpi majlisda so'zga chiqqanlar tomonidan yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan o'rmon fondi uchastkalariga asalari oilalari(uyalari) va

xo‘jaliklarini joylashtirish tartib-taomillarini soddalashtirish kerakligi ta’kidlandi. Bunga esa tegishli qonunchilik hujjatlariga o‘zgartish kiritish orqaligina erishiladi. Ushbu Qonun loyihasining qabul qilinishi natijasida O‘zbekiston Respublikasi O‘rmon xo‘jaligi davlat qo‘mitasi faoliyati samaradorligi ta’minlanadi. Xususan, yuridik va jismoniy shaxslarga investision shartnomalar yoki davlat-xususiy sheriklik asosidagi loyihalarni amalga oshirish uchun foydalanilmayotgan o‘rmon fondi yerlarini 49 yildan ko‘p bo‘lmagan muddatlarda taqdim etish borasida huquqiy asos yaratiladi. Shuningdek, o‘rmon fondi hududida rekretasion zonalar tashkil etish taomillari soddalashtiriladi, ekoturizmni rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar paydo bo‘ladi.

### Foydalaniilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo`llari va choralari.-T.:O‘zbekiston, 2009.
2. O‘zbekistonda ekoturizmni rivojlantirish kontsepsiysi Ekologiya xabarnomasi 2007 № 6
- . 3. “Xa!q so'zi” ro'znomasi, 2011-yil 11-mart.